

**O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining
Toshkent viloyati Kengashi IX hisobot-saylov Konferensiyasi**

Q A R O R I

2025-yil 25-iyul

1-son

**O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining
Toshkent viloyati Kengashi 2020-2025 yillardagi faoliyati va
kelgusidagi ustuvor vazifalar to'g'risida**

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Toshkent viloyati Kengashining 2020-yil mayidan 2025-yil mayigacha bo'lgan davr mobaynidagi faoliyati to'g'risidagi hisobot ma'ruzasini tinglab va muhokama qilib, Konferensiya hisobot kasaba uyushmalari faoliyatining barcha yo'nalishlari bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilganligini ta'kidlaydi.

Jumladan, **ijtimoiy muloqot hamda ijtimoiy sheriklik ko'lamini kengaytirish, xodimlar ijtimoiy himoyasini kuchaytirishda mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish hisobot davrida viloyat Kengashining diqqat markazida bo'ldi.**

Ijtimoiy sheriklar bilan tuzilgan **141 ta** hududiy-tarmoq kelishuvlari, bevosita korxonalar va tashkilotlarda imzolangan **3947 ta** jamoa shartnomalari orqali **584 134 nafar** xodimlarning manfaatlarini qamrab olinishiga erishildi.

Hududiy-tarmoq kelishuvlari, jamoa shartnomalari tarmoq kelishuvlariga muvofiqlashtirilgan holda tuzilishini, ularning yil yakunlari bo'yicha bajarilishi o'rnatilgan tartibda muhokama qilinishini tashkil qilish masalalariga e'tibor tubdan kuchaytirildi.

Hisobot davrida viloyat Kengashi qoshida tuzilgan ekspert komissiyasi tomonidan **3947 ta** jamoa shartnomalari loyihalari ko'rib chiqilib, xulosalar berildi.

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan tavsiya etilgan maketlarga muvofiq jamoa shartnomalariga ayollar va yoshlar uchun qo'shimcha kafolat va imtiyozlar aks ettirilgan alohida bandlar kiritildi. 2020-yilda korxonalar, tashkilotlar, muassasalarda jamoa shartnomasi tadbirlarini bajarish uchun har bir xodimga o'rtacha sarflangan mablag' **3 mln. 255 ming 500 so'm** tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib ushbu ko'rsatkich **8 mln. 373 ming 800 so'm**dan iborat bo'ldi va **2 barobarga** ortishiga erishildi.

Xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilish sohasida qonunchilikda kasaba uyushmalariga berilgan vakolatlardan samarali foydalanish, mehnat sohasidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi ustidan kasaba uyushmalarining jamoatchilik nazoratini yanada kuchaytirish hisobot davrida faoliyatning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'ldi.

Xususan, hisobot davrida **1987 ta** boshlang'ich kasaba uyushma tashkilotlari faoliyati o'rganilib, mehnatni muhofaza qilish qoida va talablariga rioya etish

sohasida **2365 ta** kamchiliklar aniqlandi. Mazkur kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risida ish beruvchilarga **1987 ta** taqdimnomalar kiritilib, jami **47 ming 212 nafar** shaxslarning huquqlari tiklanib, xodimlar foydasiga **7 mlrd. 147 mln. so'm** mablag' undirilishiga erishildi.

Shuningdek, bolalar mehnatiga va majburiy mehnatga barham berish maqsadida paxta mavsumi davomida Milliy monitoring guruhi shakllantirilib, terimchilar uchun shart-sharoitlar yaratilishi hamda ish xaqini o'z vaqtida to'lab borilishi yuzasidan **448 ta** ob'ektlarda olib borilgan o'rganishlar natijasida **2154 nafar** terimchilarning **3 mlrd. so'mga** yaqin paxta pullari undirib berilgan.

Hisbot davrida viloyat Kengashiga fuqarolardan tushgan **736 ta** murojatlarda ko'tarilgan muammolarni hal qilish maqsadida ish beruvchilarga sudlarga **22 ta** da'vo arizalari kiritilib, **68 marta** sudda mutaxassis sifatida ishtirk etilgan. **90 nafar** kasaba uyushmasi a'zolarining mehnat huquqlari tiklandi. Murojaat qilgan ishchi xodimlarga umumiy hisobda **2 mlrd. 966 mln. 300 ming so'm** miqdorida ish xaqi, majburiy progul va ma'naviy zarar mablag'lari ham undirilishiga amaliy yordam berildi.

Ish beruvchilar tomonidan ish haqining kafolatlangan eng kam miqdoriga rioya qilinishi ustidan kasaba uyushmalarining jamoatchilik monitoringi tizimli ravishda olib borildi.

Xodimlarga zararli ishlab chiqarish omillaridan xoli bo'lgan, bexatar mehnat sharoitlari yaratib berilishi ustidan doimiy jamoatchilik nazoratini tashkil qilish, kasaba uyushmalari xodimlari va faollarining mehnat muhofazasi sohasidagi bilim va ko'nikmalarini yanada oshirishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, hisbot davrida viloyat Kengashining faoliyatida ayrim kamchiliklar va foydalanilmagan imkoniyatlar ham mavjudligi ko'zga tashlandi.

Xususan, ayrim korxonalar, tashkilotlarda imzolangan jamoa shartnomalarining mazmuni va sifati hali talabga to'liq javob bermaydi. Ba'zida jamoa shartnomalari loyihalari qonunchilikda belgilangan tartibda taraflarning vakillaridan iborat komissiya tomonidan ishlab chiqilmasdan, kasaba uyushmalari Federatsiyasining tavsiyaviy maketlaridan to'g'ridan-to'g'ri ko'chirib qo'yish holatlari mavjud.

Kasaba uyushmasi boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotlarining sa'y-harakatlariga qaramay ba'zi ta'lim muassasalarida tibbiy ko'rikdan o'tkazish chog'ida xodimlar chiqimdor bo'lmoqda.

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Toshkent viloyati Kengashining 2020-yil maydan 2025-yil maygacha bo'lgan davr mobaynidagi faoliyati to'g'risidagi hisobotni, shuningdek viloyat Taftish komissiyasining hisobotini eshitib va muhokama qilib, **hisobot-saylov Konferensiyasi qaror qiladi:**

1. O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Toshkent viloyati Kengashining 2020-yil maydan 2025-yil maygacha bo'lgan davr mobaynidagi faoliyati to'g'risidagi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Toshkent viloyati Kengashining 2020-yil mayidan 2025-yil mayigacha bo'lgan hisobot davridagi faoliyati **qoniqarli deb topilsin.**

3. O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Toshkent viloyati Kengashining **taftish komissiyasining hisoboti tasdiqlansin.**

4. **Quyidagilar navbatdagi hisobot davri uchun O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Toshkent viloyati Kengashining faoliyatining ustuvor yo'nalishlari etib belgilansin:**

viloyatdagi barcha, jumladan nodavlat ta'lim muassasalarida mehnat qilayotgan xodimlar kasaba uyushmasi a'ziligiga to'liq jalb etilishini ta'minlash orqali kasaba uyushmasini tashkiliy jihatdan mustakamlashga ko'maklashish;

hududiy tarmoq kelishuvlari, jamoa shartnomalarida xodimlar, ayniqsa, yoshlar va ayollar uchun qo'shimcha imtiyoz va kafotlatlar ko'lamini oshirilishiga, hududiy tarmoq kelishuvlari va jamoat shartnomalaridagi majburiyatlar to'liq bajarilishiga erishish;

kasaba uyushmasi viloyat Kengashi jamoa shartnomalarini loyihalarini ekspertizadan o'tkazish komissiyalari a'zolarining bilimlari darajasini oshirish choralari ko'rish;

korxonalar, tashkilot va muassasalarda mehnat va mehnatni muhofaza qilish sohasidagi, "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi qonunlarga qat'iy rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini tubdan kuchaytirish, bu borada boshlang'ich tashkilotlar mas'uliyatini oshirish;

korxonalar, tashkilot, muassasalarda xalqaro mehnat standartlarining tatbiq qilinishida ish beruvchilarga ko'maklashish;

kasaba uyushmasi a'zolari o'rtasida madaniy-ma'rifiy yo'nalishdagi ishlarni yanada kuchaytirish, bunda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo'nalishida amaliy tadbirlar o'tkazishga alohida e'tibor qaratish;

kasaba uyushmalari tashkilotlari faoliyatini ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish, har bir boshlang'ich tashkilotning kasaba uyushmasi qo'mitasi, kasaba uyushmasi tashkilotchisi bir yilda kamida bir marta korxonalar, tashkilotdagi kasaba uyushmasi a'zolari oldida o'z faoliyati to'g'risida hisobot berishini qat'iy ta'minlab borish;

5. **O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Toshkent viloyati Kengashi uch kun muddatda konferensiyada bildirilgan tanqidiy fikr-mulohaza va takliflardan kelib chiqqan holda ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish yuzasidan aniq muddatli va manzilli chora-tadbirlarni ishlab chiqsin, Ijroiya qo'mita majlisida tasdiqlanishini ta'minlasin hamda ijrosini muntazam ravishda nazorat qilib borsin.**

Raislik qiluvchi

B.Abdullaev

Asliga to'g'ri